

O'ZBEKISTONNING EKSTREMIZMGA QARSHI KURASHISHDA O'ZIGA XOS TAJRIBASI

Kamolbek Xudoynazarov

Termiz davlat universiteti o'zbek filologiyasi fakulteti 1 bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19779830>

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda dolzarb muammolardan biri bo'lgan ekstremizmga qarshi O'zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosati va amaliy choralar tahlil qilinadi. Muallif ekstremizmning kelib chiqish sabablari, uning yoshlar dunyoqarashiga salbiy ta'siri va bu jarayonda ma'rifatning o'rni haqida shaxsiy mulohazalarini bayon etadi. Shuningdek, "Jaholatga qarshi ma'rifat" tamoyili hamda insonparvarlikka asoslangan "Mehr" operatsiyasining ahamiyati hayotiy misollar bilan yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: Ekstremizm, O'zbekiston tajribasi, ma'rifat, "Mehr" operatsiyasi, rehabilitatsiya, yoshlar tarbiyasi, axborot immuniteti, profilaktika, radikallashuv, milliy strategiya.

Аннотация. В данной статье анализируется государственная политика и практические меры, проводимые в Узбекистане по противодействию экстремизму, который является одной из актуальных проблем современности. Автор излагает личные соображения о причинах возникновения экстремизма, его негативном влиянии на мировоззрение молодежи и роли просвещения в этом процессе. Также на жизненных примерах освещается значение принципа «Просвещение против невежества» и гуманитарной операции «Мехр».

Ключевые слова: Экстремизм, опыт Узбекистана, просвещение, операция «Мехр», реабилитация, воспитание молодежи, информационный иммунитет, профилактика, радикализация, национальная стратегия.

Abstract. This article analyzes the state policy and practical measures implemented in Uzbekistan to counter extremism, which is one of the most pressing issues of today. The author presents personal reflections on the root causes of extremism, its negative impact on the worldview of youth, and the role of enlightenment in this process. Furthermore, the significance of the "Enlightenment against Ignorance" principle and the humanitarian "Mehr" operation is highlighted through real-life examples.

Keywords: Extremism, Uzbekistan's experience, enlightenment, "Mehr" operation, rehabilitation, youth education, information immunity, prevention, radicalization, national strategy.

Kirish Hozirgi kunda dunyoda tinchlik va barqarorlik masalasi tobora murakkablashib bormoqda, desak xato bo'lmaydi. Har kuni yangiliklarda turli urushlar, hududiy nizolar yoki ekstremistik guruhlarining buzg'unchi faoliyati haqida eshitib turibmiz. To'g'risi, bunday holatlar har birimizni chuqur o'ylantirib qo'yadi. Chunki bu muammolar faqat uzoq davlatlarga tegishli emas, balki globallashuv zamonida barchamizning hayotimizga ma'lum ma'noda ta'sir qiladi.

Ayniqsa, internet va ijtimoiy tarmoqlar rivojlangan hozirgi davrda yot g'oyalar juda tez tarqalmoqda va ularning hammasi ham foydali emas. Eng xavfli shundaki, biz kabi yoshlar hali hayotiy tajribasi kam bo'lgani sababli bunday aldovchi g'oyalarga tezroq ishonib qolishimiz mumkin. Ilmiy adabiyotlarda ekstremizm tushunchasi jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy va axloqiy me'yorlarga zid bo'lgan ashaddiy qarashlar sifatida izohlanadi.

Lekin men buni oddiyroq tushuntirsam: bu — insonlarni, ayniqsa ongi hali to'liq shakllanmagan yoshlarni noto'g'ri yo'lga boshlash, ko'pincha esa muqaddas dinimizni niqob qilib ishlatish orqali ularni aldashdir. Menimcha, aynan shu jihati ekstremizmni yanada xavfli qiladi, chunki din odamlar uchun har doim eng muqaddas va daxlsiz tuyg'u hisoblanib kelgan. O'zbekiston uchun bu masala juda dolzarb, chunki mamlakatimiz joylashgan Markaziy Osiyo mintaqasi geosiyosiy jihatdan juda murakkab nuqtada joylashgan. Shu sababli ham davlatimiz bu muammoga birinchi darajali vazifa sifatida qarab kelmoqda.

Eng muhim jihati shundaki, O'zbekiston ekstremizmga qarshi kurashishda dunyo tan olayotgan mutlaqo yangi va o'ziga xos yo'lni tanlagan.¹ Muhokama va natijalar O'zbekistonda ekstremizmga qarshi kurashish ishlari juda tizimli ravishda yo'lga qo'yilgan.

Bu borada 2018-yil 30-iyulda qabul qilingan "Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun barcha harakatlarimiz uchun mustahkam huquqiy poydevor bo'ldi. Shuningdek, 2021–2026-yillarga mo'ljallangan Milliy strategiya ham bu yo'nalishdagi ishlarni aniq reja asosida olib borishga xizmat qilmoqda. Lekin menimcha, bizning tajribamizning asosiy kuchi faqat qog'ozdagi qonunlarda emas, balki amaldagi insonparvarlik yondashuvida namoyon bo'ladi.

Yurtimiz tomonidan ilgari surilgan "Jaholatga qarshi ma'rifat" tamoyili aynan shu yo'lning markazida turadi. Bu g'oya shuni anglatadiki, ekstremizmning ildizi bo'lgan bilimsizlikka qarshi faqat ilm va ma'rifat bilan kurashish mumkin.

Ko'plab tadqiqotlarda radikallashuv jarayoni insonning ijtimoiy muhitiga va uning ruhiy holatiga bog'liqligi ta'kidlanadi¹. Ya'ni, o'z yo'lni topa olmagan yoki ma'naviy tushkunlikka tushib qolgan insonlar buzg'unchi guruhlarning ta'siriga tezroq tushib qolishi fan tomonidan ham isbotlangan.

Bunga amaliy misol sifatida, "Mehr" operatsiyasini keltirishimiz mumkin. 2019–2021-yillar davomida Suriya va Iroq kabi urush o'choqlaridan 500 dan ortiq ayollar va bolalar yurtimizga qaytarib olib kelindi. Bu jarayonda davlatimiz ularni jazolash emas, balki bag'riga bosib, jamiyatga qayta moslashtirish (reabilitatsiya) yo'lni tanladi. Qaytgan fuqarolarga uy-joy berildi, bolalari maktab va bog'chalarga joylashtirildi. Menimcha, bu inson qadrini hamma narsadan ustun qo'yishning yaqqol namunasidir.

Chunki ko'plab xorijiy davlatlar bunday vaziyatda o'z fuqarolaridan voz kechib yuborganiga guvoh bo'ldik. Shu bilan birga, diniy savodxonlikni to'g'ri shakllantirish uchun Imom Buxoriy va Imom Termiziy ilmiy markazlari tashkil etilgani juda katta ahamiyatga ega. Bu markazlar orqali yoshlarga dinimizning asl mohiyati — tinchlik va mehr oqibat ekanligi ilmiy asosda tushuntirilmog'da.

Hozirgi kunda yana bir muhim masala — bu "axborot immuniteti" hisoblanadi. Ekstremistik g'oyalar ko'pincha internet orqali tarqalishini hisobga olsak, har bir yosh ijtimoiy tarmoqlardagi ma'lumotlarga tanqidiy yondashishi, har qanday narsaga ko'r-ko'rona ishonib ketmasligi shart.²

Xulosa Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonning ekstremizmga qarshi kurashish tajribasi jahon hamjamiyati uchun samarali model bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bu model faqat jazolashga emas, balki insonni tushunish va unga to'g'ri yo'l ko'rsatishga asoslangan.

"Jaholatga qarshi ma'rifat" tamoyili esa ushbu siyosatning eng to'g'ri strategiyasi ekanligini vaqt ko'rsatib turibdi. Menimcha, bu borada nafaqat davlat, balki har birimiz mas'ulmiz. Biz kabi talabalar ilm olishdan to'xtamasligimiz, ota onalar esa farzand tarbiyasiga hushyor bo'lishi kerak.

Chunki yoshlar ongiga bugun qanday bilim va odob singdirilsa, kelajagimiz ham shunga qarab shakllanadi. Payg'ambarimiz (s.a.v.) aytganlaridek: "Hech bir ota-ona o'z farzandiga go'zal odobdan buyukroq hadya bera olmas". Agar biz bilimli va mustaqil fikrlaydigan bo'lsak, hech qanday yot g'oya bizni yo'ldan chalg'ita olmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston, 1997. – 326 b.
2. Yuldashev J.I. Terrorizm jinoyatining sotsial jamiyatga solayotgan xavf xatarlari hamda ularga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy usullari. – T., 2022.
3. Xoliyeva T.Ch. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy ma'rifiy asoslari. – Termiz, 2023. – 88 b.

¹ Yuldashev J.T. Terrorizm jinoyatining sotsial jamiyatga solayotgan xavf-xatarlari hamda ularga qarshi kurashning ma'daniy-ma'rifiy usullari. – Toshkent, 2022. – 2-bet.

² Xoliyeva T.Ch. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. O'quv-uslubiy majmua. – Termiz, 2023. – 19-20-betlar.

4. Abu Iso Muhammad at-Termiziy. Sunani Termiziy (Al-Jome' al-kabir). – Toshkent: "Adolat", 2019. – 2226-hadis.
5. O'zbekiston Respublikasining "Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni. 2018-yil 30-iyul.
6. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017.
7. R. Ernazarov. "Ekstremizm — jaholat ko'rinishi". zamaxshariy.uz elektron portali materiallari.